

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDA ETIKET VA KASBIY ETIKETNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI

Umarova Feruzabonu Bobir qizi

O'zbekiston – Finlandiya pedagogika instituti tadqiqotchisi

E-mail: umarovaferuzka997@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15271561>

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik madaniyatini shakllantirish jarayonida etiket va kasbiy etiketning tutgan o'rni hamda ularni rivojlantirish texnologiyalari yoritilgan. Etiket qoidalariga rioya qilish nafaqat shaxsiy madaniyat ko'rsatkichi, balki ta'lim jarayonining samaradorligini oshiruvchi omil sifatida ko'rib chiqiladi. Maqolada kasbiy etiket tushunchasi, uning mazmun-mohiyati va o'qituvchi shaxsida shakllanish bosqichlari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik muhitda etiketni rivojlantirishda interaktiv metodlar, rol o'yinlari, kommunikativ mashg'ulotlar kabi zamonaviy texnologiyalar asosida yondashuvlar taklif etiladi. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy o'zini tutish, nutq madaniyati va muloqot etikasini shakllantirish orqali pedagogik madaniyatni yuksaltirishning samarali yo'llari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Pedagogik madaniyat, etiket, kasbiy etiket, bo'lajak o'qituvchilar, kommunikativ kompetensiya, interaktiv texnologiyalar, nutq madaniyati, muloqot madaniyati, kasbiy tayyorgarlik.

TECHNOLOGY FOR DEVELOPING ETIQUETTE AND PROFESSIONAL ETIQUETTE IN THE DEVELOPMENT OF PEDAGOGICAL CULTURE OF FUTURE TEACHERS

Abstract: This article discusses the role of etiquette and professional etiquette in the process of forming the pedagogical culture of future teachers, as well as the technologies for their development. Compliance with the rules of etiquette is considered not only as an indicator of personal culture, but also as a factor that increases the effectiveness of the educational process. The article analyzes the concept of professional etiquette, its content and essence, and the stages of its formation in the teacher. Also, approaches based on modern technologies, such as interactive methods, role-playing games, communicative exercises, are proposed for the development of etiquette in the pedagogical environment. Effective ways of improving pedagogical culture by forming professional behavior, speech culture, and communication ethics in future teachers are shown.

Keywords: Pedagogical culture, etiquette, professional etiquette, future teachers, communicative competence, interactive technologies, speech culture, communication culture, professional training.

ТЕХНОЛОГИЯ ФОРМИРОВАНИЯ ЭТИКЕТА И ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ЭТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: В статье рассматривается роль этикета и профессионального этикета в процессе формирования педагогической культуры будущих учителей, а также технологии их развития. Соблюдение правил этикета считается не только показателем личной культуры, но и фактором, повышающим эффективность образовательного процесса. В статье анализируется понятие профессионального этикета, его содержание и сущность, этапы его формирования в личности педагога. Также предлагаются подходы, основанные на современных технологиях,

таких как интерактивные методы, ролевые игры, коммуникативные упражнения, для развития этикета в педагогической среде. Будущим учителям будут показаны эффективные пути повышения педагогической культуры путем развития профессионального поведения, культуры речи и этики общения.

Ключевые слова: Педагогическая культура, этикет, профессиональный этикет, будущие учителя, коммуникативная компетентность, интерактивные технологии, культура речи, культура общения, профессиональная подготовка.

KIRISH

Jamiyatda shakllangan etiket qoidalari axloqiy me'yorlar deyiladi. Bugungi kunda jamiyatdagi axloqiy me'yorlar uzoq vaqt davomida odamlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning ijobiy natijasi hisoblanadi. Bu qoidalarga itoat qilish davlatlararo siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabat qilish garovi bo'lib xizmat qiladi, chunki bir-birini hurmat qilmasdan va boshqa davlatlarga nisbatan o'zini tutish chegaralarini saqlamasdan birga tinch-totuv yashash mumkin emas. Bundan tashqari etiket qoidalarga rioya qilish bozor iqtisodiyoti davrida turli dinlarga itoat qiladigan har xil millat vakillarining, jamiyatimizda paydo bo'lgan turli tabaqali guruhlarining va har xil dunyoqarashdagi kishilarning tinch-totuv yashash garovi bo'lib xizmat qiladi.

Etiket qoidalarga nafaqat davlatlar, jamiyatning har bir a'zosi va kasb guruhlarining a'zolari tomonidan ham rioya qilishlari lozim. O'zini madaniyatli hisoblaydigan har bir kishi etiket qoidalarining asosiylarini nafaqat bilishlari, ularga itoat qilishlari ham kerak, chunki muomala qilishda o'zini tuta bilish va to'g'ri xatti-harakat qilish aloqa qilishni osonlashtiradi, bir-birlarini tezroq tushunish uchun imkoniyat yaratadi, barqaror aloqa o'rnatish garovi bo'lib hisoblanadi. Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, madaniyatli va tarbiya ko'rgan har bir odam hech qachon jamiyatda o'rnatilgan tartibni o'zining so'zi va yurish-turishlari va xatti-harakati bilan buzmaydi, boshqalarni xafa qilmaydi va ularning shoniga tegmaydi.

ASOSIY QISM

Madaniyatli kishi nafaqat rasmiy marosimlarda, uyda ham etiket qoidalarga itoat qiladi. Afsuski, etiket qoidalarga uyda itoat qilmaydigan odamlar ko'p uchrab turadi: ular odamlar bilan boshqa, uyda esa umuman boshqa munosabatda bo'lishadi, masalan, boshqa odamlar, do'stlari va qo'l ostidagilar bilan xushmuomalali, uyda esa qo'pol va odobsiz munosabatda bo'ladi. Ularning bunday ikki yuzlama yurish-turishlari va o'zini tutishlari faqat madaniyatsizligidan darak beradi.

Hozirgi zamon etiketi odamlarning turmushda (uyda), xizmatda, jamoat joylarida, ko'chada, mehmonchilikda va rasmiy tadbirlarda o'zini tutish va harakat qilish qoidalarini belgilaydi. Shuning uchun ham etiket barcha xalqlarning asrlar davomida yaxshilik, odillik va odamgarchilik to'g'risidagi tasavvurlari bo'lib, umuminsoniy madaniyatning eng yirik va muhim qismi hisoblanadi.

Kasbiy etiket- bu kasbi bo'yicha birlashgan guruhlar a'zolarining bir-birlariga nisbatan, rahbar xodimlar va ularga bo'ysunadigan kishilar o'rtasidagi hamda o'z kasbiy burchiga nisbatan o'zini tutish va xatti-harakat qilish qoidalarini o'z ichida oladi. Ko'rsatilganlardan tashqari kasbiy etiket qoidalari, kasbiy ish kiyimlariga, o'zlarining tashqi ko'rinishlariga va so'zlashishlariga qo'yiladigan estetik talablarni ham o'z ichiga oladi.

Odatda Fransiya va Angliyani etiketning klassik mamlakatlari deyishadi. Lekin bu etiket qoidalari ilk bor Fransiya va Angliyada vujudga kelgan degan so'z emas. Agar etiket to'g'risidagi ma'lumotlar paydo bo'lish tarixi asrlarga mansubligi hisobga olinsa, ularni etiket makoni deb aytib bo'lmaydi, chunki etiket faqat ma'naviy yuksak jamiyatda vujudga kelishi mumkin. Mamlakatlarning rivojlanish tarixidan ma'lumki, Angliya shu davrlarda mustamlakachilik urushlarini olib borgan, bir

urushni tamom qilgandan darrov ikkinchi urushga kirishgan. U XVI asrning o'rtalarigacha varvarlar (vahshiylar) mamlakati sifatida tanilgan. Fransiya esa Angliya qaramida bo'lgan va nodonlar mamlakati hisoblangan, chunki fransuzlar harbiy xizmatdan boshqa hech narsani tan olishmagan, ilmni hurmat qilishmagan, olimlarni esa e'tiborga loyiq bo'lmagan odamlar deb hisoblashgan. Demak, deyarli ikki yarim asr davomida ikkala mamlakatda ham qo'pollik, unga sajda qilish va behurmatlik hukmronlik qilgan. Albatta bunday mamlakatlarda etiket to'g'risida gap bo'lishi ham mumkin emas. O'sha zamondagi Germaniyada murosasiz va shafqatsiz Gessitlar urushlari avjiga chiqqan vaqt edi. O'sha asrlardagi Yevropa mamlakatlari ichida urushlardan faqat Italiya istisno bo'lgan.[]

Italiyaliklarning feodal urf-odatidan Yevropa mamlakatlari ichida yangi zamon ruhiga o'tishi XIV asrdan boshlandi va Italiya jamiyati ma'naviy qiyofasining yaxshi tomonga o'zgarishiga olib keldi. Agar XV asrdagi Italiyani boshqa Yevropa mamlakatlari bilan solishtirilib qaralsa, unda jamiyatning bilimlik darajasining yuqoriligi, ma'naviy va moddiy boyligi va hayotning farovonligi ko'zga tashlanadi. Demak, Yevropa mamlakatlari ichida birinchi bo'lib Italiyada madaniyatli jamiyat shakllanib boshlangan. Shuning uchun ham Italiya birinchi etiket makoni deb hisoblanishiga haqli.[]

Albatta, endi dunyoga kelgan yosh go'dakning hech narsadan xabari bo'lmaydi. U jamiyatda o'zini tutish va yurish-turish qoidalarini o'zining ulg'ayishi va yashashi davrida o'zlashtiradi. Ma'lumki, bu o'ta ko'p vaqtni talab qiladi. Shuning uchun ham ulg'ayayotgan jamiyat a'zolariga etiket qoidalarini oson yo'l va qisqa vaqt ichida etkazish maqsadida ularni umumlashtirish bo'yicha urinishlar azaldan boshlangan. Masalan, etiket bo'yicha birinchi kitob eramizdan oldin Yegiptda 2350 yillarda yozilgan bo'lib, «O'zini tutish bo'yicha yo'riqnoma» deb nomlangan.

O'rta asrlarda eng mashhur bo'lgan etiket bo'yicha kitob «Klerikalis intizomi» nomi bilan Ispan ruhoniysi Pedro Alfanzo tomonidan yozilib, 1204 yilda nashr qilingan. U dindorlar va monarxlar uchun mo'ljallangan bo'lib, unda asosan o'zini tutish qoidalarini hamda suhbat olib borish va mehmonlarni kutib olish tartibi o'zining ifodasini topgan. Kitobning mashhurligi shundan iboratki, keyinchalik uning asosida Angliya, Gollandiya, Fransiya va o'sha vaqtdagi Italiya va Germaniyaga qarashli hududlarda etiket bo'yicha qo'llanmalar nashr qilingan. Rossiyada birinchi bo'lib, etiket bo'yicha o'quv qo'llanmalari nashr qilindi.

Petr birinchi tomonidan tashkil qilingan aristokratlar (oqsuyaklar) maktabi tinglovchilari uchun yozilgan «Yoshlar ko'zgusi yoki turmush muomalalari bo'yicha ko'rsatma» («Yunosti chestnoye zersalo ili pokazaniya po jiteyskomu obxojdeniyu») Rossiyada mashhur etiket bo'yicha kitoblardan biri bo'lgan. Bu kitob XVIII asrda bir necha marta qayta nashr qilingan, unda asosan jamiyatda muomala qilish, ovqatlanish stoli atrofida o'zini tutish, pichoq va panshaxalardan foydalanish, tanishlar bilan uchrashganda qancha masofada bosh kiyimini olish va egilib salom berishda tananing qanday holatda bo'lish qoidalariga e'tibor berilgan.

Shu erda shuni ta'kidlab o'tish o'rinliki, aristokratik g'arbiy Yevropada saroy etiket qoidalarining qat'iyligi ba'zan kulgili va bir vaqtning o'zida yig'latib — kuldiradigan tragekomik vaziyatlarning kelib chiqishiga sababchi bo'lgan. Masalan, etiketga rioya qilish tarixida shunday bir voqea sodir bo'lgan: Fransiya qiroli Lyudovik XIII mamlakat ruhoniysi (kardinal) Rishalye yoniga ish yuzasidan gaplashish uchun kirgan. Kardinal o'rnidan turolmaydigan holatda kasal bo'lib yotgan bo'ladi. Shunda qiroli Lyudovik XIII ruhoniyni yonida yotib muloqot qiladi, chunki o'sha vaqtdagi etiket qoidalariga ko'ra yotgan fuqarolari bilan qiroli o'tirib yoki oyog'ida tik turib gaplashishga haqi bo'lmagan.[]

O'rta asrlar etiket qoidalarini birinchi navbatda cherkovlarda, keyinroq esa Fransiya, Angliya va boshqa Yevropa mamlakatlarining qirollari saroylarida o'rnatilgan. Shuning uchun ham bo'lsa

kerakki, Fransiya va Angliyani etiketning klassik mamlakatlari deb atashadi. Bundan ko‘rinib turibdiki, etiket qoidalari avvallar din xodimlariga va aristokratlarga nisbatan umumlashtirilgan.

Aristokratlar etiket qoidalari, bundan oldin ko‘rsatilganidek, asta sekinlik bilan okean orqasidagi mamlakatlarga, masalan, o‘sha zamondagi Amerikaga, tarqalib boshlagan. Amerika qo‘shma shtatlarining bo‘ljak birinchi prezidenti Jorj Vashington hali 14 yoshidayoq «Yaxshi xulq qoidalari» nomli kitob yozgan va unda 110ta etiket qoidalari o‘z ifodasini topgan. Ularning ichida hatto «Stol atrofida o‘tirganingda qo‘shilma», «Panshaxa bilan tishningni kavlama», «Odamlar oldida buralarni o‘ldirma» kabi maslahatlar ham keltirilgan bo‘lgan.

Etiket qoidalarining jamiyatdagi, millatlar va mamlakatlararo munosabatlardagi ahamiyati hisobga olingan holda qator Yevropa mamlakatlarida etiket maktablari, Amerika qo‘shma shtatlarida esa hatto etiket instituti, tashkil qilingan. Angliyalik yozuvchilar o‘zlarining asarlarida etiket masalalariga ham katta e‘tibor berishgan.

Hammaga ma‘lumki, amalda hatto bir kishining xulq-atvoriga qarab uning mamlakati va xalqining madaniyati to‘g‘risida xulosa chiqarishadi. Shu sababdan ham oxirgi yillarda qator mamlakatlarda etiket bo‘yicha nasihatlar nashr etilib, ularga itoat qilish sayyohlardan talab qilinadi. Masalan, sayyohlik bo‘yicha Yevropa bosh boshqarmasi chet ellarga sayohatga boruvchilar uchun 9 banddan iborat etiket qoidalarini ishlab chiqqan. Uning birinchi bandidayoq shunday deyilgan: «Eslaringizdan chiqarmangizlar, siz o‘z mamlakatingizda millionlab vatandoshlaringiz ichida faqat bitta oddiy fuqaro, shu vaqtda siz chet elda «ispansiz» yoki «fransuzsiz».

Sizning mamlakatingiz to‘g‘risidagi fikr sizning xatti – harakatingiz bilan bog‘liq.» Oxirgi vaqtlarda etiket bo‘yicha kitoblar avval sobiq ittifoq tarkibiga kirgan hozirgi MDH mamlakatlarida ham nashr etilgan. O‘zbekistonda hozirgi zamon va sharqona etiket qoidalarini o‘z ichiga olgan asosiy kitob Ruben Safarov muallifligida 1993 yilda «Pravila xoroshego tona» (Yaxshi muomala qoidalari) nomi bilan nashr etilgan.

O‘zbekiston Respublikasining 2024 yil 1 fevralda tasdiqlangan «Pedagogik maqom» to‘g‘risidagi qonuni, 8-moddasida Pedagogik etika qoidalari ko‘rsatib o‘tilgan. Ular qo‘yidagilar Pedagog o‘z kasbiy faoliyatini amalga oshirishda:

Pedagogik etika qoidalari pedagog o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarishi chog‘ida amal qilishi lozim bo‘lgan qoidalar majmuidan iboratdir.

Pedagogik etika qoidalari ta‘lim tashkilotlari uchun tegishli qo‘shimcha O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta‘limi vazirligi hamda Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi va belgilangan tartibda tasdiqlanadi. Pedagogik etika qoidalarini bilish va ularga amal qilish pedagogning o‘z kasbiy majburiyatlarini bajarishining sifat ko‘rsatkichlarini hamda pedagogning mehnat intizomini belgilaydigan mezondir. Pedagogik etika qoidalarining pedagog tomonidan buzilishi uni mehnat to‘g‘risidagi qonunchilikka asosan intizomiy javobgarlikka tortish uchun asos bo‘ladi.

Ta‘lim-tarbiya jarayoni ishtirokchilari ta‘lim muassasalarida quyidagi etika qoidalariga amal qilishlari lozim:

- pedagog-xodimlarning sha‘ni va qadr-qimmatini hurmat qilishlari;
- o‘zaro munosabatlarda yagona jamoa sifatida hurmat, do‘stlik, hamjihatlik, halollik va adolat tamoyillariga rioya etishlari;
- turli xil zo‘ravonlik va kamsituvchi xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslik;
- pedagog-xodimlar tasdiqlangan mashg‘ulotlar jadvali asosida ishga va darsga o‘z vaqtida kelishlari;

– pedagog-xodimlar ish vaqtida kasb madaniyati hamda ta'lim muassasalarining Ustavi bilan tasdiqlangan talablarga ko'ra kiyinishlari;

– kiyimlarning o'ta tor yoki o'ta keng bichimda bo'lmashligi; kiyimlarning toza va dazmollangan bo'lishi.

Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik madaniyatini rivojlantirishda kasbiy etiket muhim ahamiyatga ega.

Pedagogning kasbiy etikasi quyidagi kategoriyalardan iborat
Pedagogik deontologiya
Pedagogning kasbiy axloq-odob qoidalariga rioya qilish
Pedagogning obro' orttira olish qoidalari;
Pedagogik nutq madaniyati

XULOSA

Xulosa qilib aytganda pedagogik faoliyatda etiket va kasbiy etiketga amal qilish — o'qituvchining nafaqat tashqi madaniy ko'rinishi, balki ichki kasbiy saviyasi va axloqiy tamoyillarining ifodasidir. Bo'lajak o'qituvchilarda ushbu jihatlarni shakllantirish ularning kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyati va ta'lim-tarbiyaviy samaradorligiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Maqolada ta'kidlanganidek, pedagogik madaniyatni rivojlantirishda kommunikativ kompetensiya, nutq madaniyati, muloqot etikasiga doir mashg'ulotlar va interaktiv metodlardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Kasbiy etiketga rioya qilgan holda faoliyat yurituvchi o'qituvchi o'quvchilar uchun na'munaviy shaxs sifatida qaraladi va ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Shu bois, bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy tayyorlash jarayonida etiket va kasbiy etiketni rivojlantirishga yo'naltirilgan texnologiyalarni joriy qilish dolzarb vazifalardan biridir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Pedagogning maqomi to'g'risida" gi Qonuni – T.: 2024-yil 1-fevral <http://lex.uz/docs/-6786401>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-6108-sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5085999>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi 2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 31 dekabrda "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim jarayonini tashkil etish bilan bog'liq tizimni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi824-sonliQarori.
5. Mirziyoev Sh.M. "Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". – T.: "O'zbekiston", 2017. – 104 b.
6. Abdulla Sher. Estetika (nafosat falsafasi)/-T: O'zbekiston, 2013. - 246b.
7. Абдуллаева Ш.А. Педагогика. Дарслик. – Т.: Фан ва технологиялар нашриёти, 2016 йил. – 378 б.
8. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат. – Т.: Молия, 2003. – 192 б.
9. Азизходжаева Н.Н. Ўқитувчи мутахассислигига тайёрлаш технологияси. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2000. – 52 б.
10. Baxtiyorov O. "Pedagogik madaniyatning nazariy asoslari". Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2018.